

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**A. Navoiy nomidagi SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**O`RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA`LIMI MARKAZI  
SAMARQAND TURIZM VA MAISHIY XIZMAT KASB-  
HUNAR KOLLEJI**

**S.I. Sharipov, M.A. Yunusov, S.M. Xasanova**

**Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha bitiruvchilarning yakuniy davlat  
attestatsiyasini tashkil etish bo'yicha**

**USLUBIY QO`LLANMA**

**Samarqand-2011 yil.**

**Mas`ul muharrir:**

**G'afforov Shokir Safarovich** – SamDU Tarix-falsafa fakulteti dekan, t.f.d, professor.

**Taqrizchilar:**

**Xoliqulov R.Sh** – SamDU “O'zbekiston tarixi” kafedrasining dotsenti, t.f.n.

**Sharipova D.I.** Samarqand Olimpiya zaxiralari kolleji direktorining o'rinbosari

Ushbu uslubiy qo'llanma Respublikamizdagi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun mo'ljallangan bo'lib, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining “O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida Muvaqqat nizom”i asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari va bu boradiga amaliy tavsiyalar joy olgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma SamDU o'quv-uslubiy kengashining 2011 yil 2martdagi \_-sonli yig'ilish qaroriga asosan chop qilishga tavsiya etilgan

**“Har kuni, har soatda fidoiy bo`lish, o`zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish - haqiqiy qahramonlikdir”.**

*I.A. Karimov*

### **Kirish**

Ma`lumki Respublikamizda mustaqillik yillarida ta`lim, xususan o`rta maxsus ta`lim tizimi doimo hukumatimiz diqqat markazida bo`lib kelmoqda. O`tgan davr mobaynida ta`lim to`g`risida juda ko`plab qonunlar, qarorlar va boshqa huquqiy-me`yoriy hujjatlar qabul qilindi hamda ularning asosida tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari I.A. Karimov aytganlaridek, **“Biz o`z taqdirimizni o`z qo`limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo`lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz”.**

Ushbu uslubiy qo`llanma Respublikamizdagi o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalari uchun mo`ljallangan bo`lib, O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi markazining “O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida yakuniy davlat attestatsiyasini o`tkazish tartibi to`g`risida Muvaqqat nizom”i asosida ishlab chiqilgan bo`lib, unda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo`yicha bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishning huquqiy-me`yoriy asoslari va bu boradiga amaliy tavsiyalar joy olgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGINING O'RTA  
MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI DAVLAT TEST  
MARKAZINING  
QARORI  
**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA YAKUNIY DAVLAT  
ATTESTASIYASINI O'TKAZISH TARTIBI TO'G'RI SIDA NIZOMNI TASDIQLASH  
HAQIDA**

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 443-modda)*

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 6 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazildi,  
ro'yxat raqami 2011]**

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Test markazi qaror qiladi:

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida yakuniy davlat attestasiyasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi **nizom** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab o'n kundan keyin kuchga kiradi.

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi  
markazi direktori Sh. JAVLONOV**

Toshkent sh.,  
2009 yil 4 Sentyabr,  
39/QQ-son

**Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Test markazi diRektori B. ISMAILOV**

Toshkent sh.,  
2009 yil 4 Sentyabr,  
27/QQ-son

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2009 yil 4 sentyabrdagi 39/QQ va 27/QQ-son

qaroriga  
ILOVA

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida yakuniy davlat atTestasiyasini o'tkazish tartibi  
to'g'risida  
NIZOM**

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga muvofiq o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchi o'quvchilarining (Keyingi o'rinlarda o'quvchilar deb yuritiladi) yakuniy davlat atTestasiyasini (keyingi o'rinlarda yakuniy atTestasiya Deb yuritiladi) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

**I. Umumiy qoidalar**

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida (Keyingi o'rinlarda ta'lim muassasalari deb yuritiladi) yakuniy atTestasiya:

o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini kompleks baholash;

o'quvchilarga kichik mutaxassis malaka darajasini Berish masalasini hal etish;

o'quvchilarga ta'lim muassasasini tugatganligi to'g'risida davlat namunasidagi diplom berish masalasini hal etish maqsadlarida o'tkaziladi.

2. Yakuniy attestasiya ta'lim muassasalarida turdosh ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestasiya komissiyalari (Keyingi o'rinlarda DAK Deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy attestasiyani o'tkazish uchun bir ta'lim muassasasida ta'lim yo'nalishlaridagi o'quvchilar sonidan Kelib chiqib, bir nechta DAK tashkil etilishi mumkin.

4. DAKning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini kompLeks baholash;

DAK bayonnomalarini rasmiylashtirish, yakuniy hisobot va tahliliy xulosalarini tayyorlash;

davlat imtihonlari va malakaviy bitiruv diplom ishi (loyiha)ni (Keyingi o'rinlarda malakaviy ish Deb yuritiladi) himoyasini o'tkazish kuni va sinov ishlarining shaklini aniqlash;

topshiriqlar to'plamini va baholash Mezonlarini tasdiqlash;

o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi (ta'rif razryadi)ni tasdiqlash;

ta'lim muassasasini tugatganligi to'g'risida o'quvchiga davlat namunasidagi diplom Berish masalasini hal etish.

5. DAK o'z faoliyatini mazkur Nizom va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi hamda ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa qonun hujjatlariga tayangan holda olib boradi.

6. Ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan o'quvchilar, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yakuniy attestasiyadan o'tishlari majburiy.

## **II. Yakuniy atTestasiya sinovlari**

7. Yakuniy attestasiya quyidagi ko'rinishdagi attestasiya sinovlaridan iborat:

davlat imtihonlarini topshirish;

malakaviy ishni himoya qilish.

8. Akademik liseylarda davlat imtihonlari o'quv Rejadagi O'zbekiston tarixi fani va chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha o'tkaziladigan imtihonlardan iborat.

9. Kasb-hunar kolLEjlarida davlat imtihonlari o'quv Rejadagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar hamda kasblar bo'yicha amaliy imtihonlardan iborat.

Sog'liqni saqlash sohasiga oid mutaxassisliklarda malakaviy ish himoyasi o'rniga kasbiy nazariy hamda kasbiy amaliy fanlar majmualari bo'yicha davlat imtihonlari o'tkaziladi.

10. Muayyan mutaxassislik (ta'lim yo'nalishi) bo'yicha yakuniy atTestasiya sinovlarining tarkibiy qismlari va ularni o'tkazish muddati O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi (Keyingi o'rinlarda Markaz Deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlangan namunaviy o'quv Rejasiga muvofiq Belgilanadi.

11. Davlat imtihonlarini o'tkazish va malakaviy ishni himoya qilish jadvali ta'lim muassasasi diRektori tomonidan yakuniy attestasiya boshlanishidan kamida o'ttiz kun oldin tasdiqlanadi.

12. Davlat imtihonlarining namunaviy savol va topshiriqlari mazmuni, hajmi va murakkablik darajasi tegishli fanning davlat ta'lim standarti (tarmoq ta'lim standarti)ga muvofiq o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni o'quvchi tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi shart.

## **III. DAK tarkibi**

13. DAK a'zolari tarkibi 7 yoki 9 kishidan iborat bo'lib, uning uchdan ikki qismi qatnashganda yakuniy atTestasiya vakolatli hisoblanadi.

14. AkaDemik liseylarda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, turdosh va mazkur ta'lim muassasasining tajribali, malakali o'qituvchilari tarkibidan DAK shakllantiriladi.

AkaDemik liseylarda DAK a'zolari tarkibining kamida o'ttiz foizini oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari hamda turdosh ta'lim muassasasining vakillari tashkil etishi lozim.

15. Kasb-hunar kollejlarida ish Beruvchi tashkilotlarning mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, vazirlik va idoralarning soha mutaxassislari hamda turdosh kasb-hunar kolLEjlari va mazkur ta'lim muassasasining tajribali, malakali maxsus fan o'qituvchilari tarkibidan DAK shakllantiriladi.

Kasb-hunar kollejlarining maxsus fan o'qituvchilari ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha diRektor o'rinbosarining tavsiyasi asosida DAK a'zolari tarkibiga kiritiladi.

Kasb-hunar kollejlari DAK a'zolari tarkibining kamida qirq foizini ish beruvchi tashkilotlarning vakillari tashkil etishi lozim.

Madaniyat, san'at, musiqa kollejlari DAK a'zolari tarkibining kamida yigirma foizini ish Beruvchi tashkilotlar, shuningdek, turdosh oliy ta'lim muassasasi vakillari tashkil etishi lozim.

16. Yakuniy atTestasiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

17. Yakuniy atTestasiyada vasiylik kengashi, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari va ota-onalar vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

18. DAK a'zolari tarkibi ta'lim muassasasi diRektorining vazirlik va idoralar, Tegishli oliy ta'lim muassasalari, ish Beruvchi tashkilotlar va turdosh ta'lim muassasalari rahbarlariga yo'llagan yozma murojaatlariga ularning yuborgan rozilik xati asosida yakuniy attestasiya boshlanishidan kamida qirq besh kun oldin shakllantiriladi.

19. DAK tarkibi (raisi va a'zolari) yakuniy atTestasiya boshlanishidan kamida ikki hafta oldin bir yil (kaLendar yil) muddatga hududiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi boshlig'ining (vazirlik yoki idoralar tasarrufidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun shu vazirlik yoki idora rahbarining) buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

20. DAK raisi akademik liseylarda tayanch oliy ta'lim muassasasi Rektori bilan kelishilgan holda mazkur oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari tarkibidan va kasb-hunar kollejlari ish Beruvchi tashkilotlar, shuningdek, turdosh oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari vakillari tarkibidan tanlanadi.

21. Bir kishi Ketma-ket bir ta'lim muassasasida Tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki martadan ortiq DAK raisi bo'lishi mumkin emas.

22. Ta'lim muassasasining direktori yoki uning o'rinbosarlari (xo'jalik ishlari bo'yicha diRektor o'rinbosaridan tashqari) DAK raisi o'rinbosari hisoblanadi.

23. DAK raisi komissiya faoliyatini tashkillashtiradi, nazorat qiladi, uning xulosa va qarorlarini imzolaydi hamda o'quvchilarga qo'yilgan talablarning bir xilligini ta'minlaydi.

DAK raisi o'rinbosari yakuniy attestasiyani o'z vaqtida sifatli o'tkazishga hamda DAKning ishlashi uchun zarur sharoitlarni yaratishga mas'ul hisoblanadi.

24. DAK har yili yakuniy attestasiyani o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davridan boshlab keyingi o'quv yili boshlangunga qadar faoliyat ko'rsatadi.

#### **IV. Yakuniy atTestasiyani tashkil etish va o'tkazish tartibi**

##### **1-§. Yakuniy attestasiyani tashkil etish va o'tkazishning umumiy qoidalari**

25. O'quv Reja va dasturlarining barcha talablarini to'liq bajargan o'quvchi ta'lim muassasasi diRektorining buyrug'iga asosan yakuniy attestasiyaga qo'yiladi.

26. Yakuniy atTestasiyada ijobiy baho olgan o'quvchiga belgilangan tartibda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasini tamomlaganligi to'g'risida davlat namunasidagi diplom Beriladi.

27. O'quv Rejasi bo'yicha ko'zda tutilgan fanlardan kamida 86 foizi «a'lo», qolgan fanlardan «yaxshi», xulqi uchun «a'lo» hamda yakuniy attestasiya sinovlaridan «a'lo» baholar olgan, shuningdek, jamoat ishlarida faol qatnashgan o'quvchiga imtiyozli diplom Beriladi.

28. Yakuniy atTestasiya sinovlarining birortasidan «qoniqarsiz» baho olgan yoki unga uzrli sabab bilan Kelmagan o'quvchi boshqa sinovlar (davlat imtihonlari)ni topshirish huquqidan mahrum etilmaydi. Bunday holda ta'lim muassasasi diRektori tomonidan o'quvchiga joriy o'quv yilidagi DAK ishi davrida sinov topshirish uchun ruxsat beriladi.

29. Yakuniy atTestasiya sinovlaridan o'ta olmagan, shuningdek, unda ishtirok eta olmagan o'quvchilarga o'qish uchun belgilangan muddat tugagandan bir oy o'tgandan so'ng (o'quvchi mustaqil holda tayyorgarlik ko'radi) DAK qarori bilan DAK ishi davrida sinovni qayta topshirishga ruxsat etiladi.

30. Yakuniy atTestasiya sinovlaridan qayta topshirish natijasiga ko'ra ham «qoniqarsiz» baho olgan yoki unda ishtirok etmagan o'quvchiga ta'lim muassasasining to'liq kursini tamomlaganligi to'g'risida o'rnatilgan shaklda ma'lumotnoma beriladi.

##### **2-§. Akademik liseylarda davlat imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish**

31. AkaDemik lisey o'quvchilari uchun O'zbekiston tarixi fanidan davlat imtihonlari test usulida amalga oshiriladi.

AkaDemik liseylarda testlarni tashkil etish va o'tkazish mazkur bo'limning 3-paragrafiga muvofiq kasb-hunar kollejlari gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha o'tkaziladigan Test usuli qoidalari asosida amalga oshiriladi.

32. Chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha davlat imtihonlari o'quv Rejalarining izoh qismida keltirilgan (oliy ta'lim muassasalariga kirishda Test sinovlari topshiriladigan) fanlardan o'tkaziladi.

33. Imtihonlar ona tili va adabiyot fanidan insho, maTematika fanidan yozma, qolgan fanlardan og'zaki sinovlar ko'rinishida o'tkaziladi.

34. Davlat imtihonlari Markaz tomonidan tayyorlangan va tasdiqlangan materiallar hamda mezonlar asosida o'tkaziladi.

35. Yozma ravishda o'tkaziladigan davlat imtihonlari uchun ajratiladigan vaqt sarfi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi 400-son «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq tayanch o'quv rejasida davlat attestatsiyasi uchun ko'zda tutilgan soatlar doirasida amalga oshiriladi.

### **3-§. Kasb-hunar kollejlari gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha davlat imtihonlarini tashkil etish hamda o'tkazish**

36. Kasb-hunar kollejlari gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha davlat imtihoni test sinovlari usulida o'tkaziladi.

Test sinovlarini tashkil etish hamda tartibli, xolisona va adolatli o'tkazish mas'uliyati DAK a'zolari, auditoriya rahbari va kuzatuvchisi zimmasiga yuklatiladi.

37. Auditoriya rahbari va kuzatuvchilar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining pedagog (Test o'tkaziladigan fan o'qituvchilaridan tashqari), muhandis-pedagog, ishlab chiqarish ta'limi ustasi hamda taklif etilgan (umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchisi, jamoat tashkilotlari vakili va shu kabi)lar orasidan DAK tomonidan tanlab olinadi.

38. Test sinovlari topshiriqlari to'plami o'quv dasturlari mazmunini to'liq qamrab olgan holda ta'lim muassasasi o'qituvchilari tomonidan shakllantiriladi, Tegishli bo'lim (kaFedra)larda muhokama qilinadi.

39. DAK test sinovlari topshiriqlari to'plami asosida test sinovlari variantlarini tuzadi va ularning oshkor etilmasligini ta'minlaydi.

40. Test sinovlari topshiriqlari soni o'quv guruhlaridan sonidan kam bo'lmasligi Kerak.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha imtihonlarga kiritilgan fanlar dasturlari bo'yicha tuzilgan test sinovlari topshiriqlari namunalari kamida bir oy oldin o'quvchilarning e'tiboriga yetkazilishi lozim.

41. Test sinovlari boshlangandan keyin hych kim sinov o'tkazilayotgan auditoriyaga kiritilmaydi, o'quvchilar test maTeriallarini o'rnatilgan tartibda topshirmaguncha auditoriyadan chiqarilmaydi va test topshiriqlari bo'yicha o'quvchilar bilan savol-javoblar qilinmaydi.

42. Test sinovlari topshiriqlarida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish ta'lim muassasasining ilmiy-Pedagogik kengashi qaroriga muvofiq javoblar varag'i orqali yoki axborot kommunikasiya vositalari yetarli bo'lgan ta'lim muassasalarida kompyuTerlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

43. Test sinovlarini topshirish uchun 120 daqiqa vaqt Belgilanadi.

44. Test sinovlari jarayonida o'quvchilar tomonidan darslik, o'quv qo'llanma, matn, shpargalka, uyali Telefon va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish qat'iyan taqiqlanadi.

Test topshirish qoidalariga rioya qilmagan o'quvchilar test sinovidan Chetlashtiriladi va bu haqda o'sha zahoti dalolatnoma tuziladi.

45. Test sinovlari uchun ajratilgan vaqt tugagandan so'ng auditoriya rahbari test sinovi tugaganligini rasman e'lon qiladi, o'quvchilardan test maTeriallarini qabul qilib oladi va ularni yelimlangan paketda DAKga topshiradi.

46. DAK tomonidan test sinovlari topshiriqlarini yakuniy baholashda topshiriqlarning 86 — 100 foizi to'g'ri bajarilgan holda 5 baho, 71 — 85 foizi to'g'ri bajarilgan holda 4 baho, 56 — 70 foizi to'g'ri bajarilgan holda 3 baho va 56 foizgacha to'g'ri bajarilgan holda 2 baho qo'yiladi.

47. DAKning xulosasi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada test sinovlari bo'yicha berilgan topshiriqlar, o'quvchining bahosi qayd etiladi. Bayonnoma DAK raisi, a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi.

#### **4-§. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish**

48. Kasblar bo'yicha amaliy imtihon kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining egallagan kasb-hunari bo'yicha malaka va ko'nikmalarining shakllanganligi hamda kasbiy tayyorgarlik darajasi (ta'rif razryadi)ni aniqlaydi.

49. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlar o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqarish amaliyotlari tugagandan hamda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha davlat imtihonlari topshirilganidan so'ng malakaviy ish himoyasidan oldin o'tkaziladi.

O'quv Rejasiga muvofiq yakuniy atTestasiyani o'tkazishga ajratilgan ikki haftaning birinchi haftasida kasblar bo'yicha amaliy imtihon, ikkinchi haftasida malakaviy ish himoyasi Rejalashtiriladi.

Kasblar bo'yicha amaliy imtihon bilan malakaviy ish himoyasi oralig'ida himoyaga tayyorgarlik ko'rish uchun kamida uch kun vaqt ajratilishi lozim.

50. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlarni o'tkazish shakli, beriladigan topshiriqlar mazmuni egallanayotgan kasbning xususiyati va kasbiy faoliyatning mazmuniga oid ko'rsatkichlardan kelib chiqib belgilanadi.

51. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlar ta'lim muassasasining o'quv ustaxonasi, laboratoriyasi yoki ishlab chiqarish korxonalari (Texnologik jarayonlar bilan bog'liq yo'nalishlar bo'yicha) bazasida tashkil etiladi.

52. Kasblar bo'yicha amaliy imtihon topshiriqlarining variantlari ish beruvchi tashkilotlar mutaxassislari, kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari, bosh usta, maxsus fan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan kompLeks ishlar ko'rinishida tanlanadi hamda kasblar bo'yicha amaliy imtihon topshiriqlarini bajarishga Kerak bo'ladigan xom ashyo materiallari, chizmalar, texnologik xarita, o'lchash va kesish asbob-uskunolari ro'yxati aniqlanadi.

Kasblar bo'yicha amaliy imtihon topshiriqlari yo'nalishning tarmoq ta'lim standarti talablaridan Kelib chiqqan holda tuziladi.

53. Amaliy imtihon topshiriqlarini bajarish uchun Ketadigan vaqt me'yori har bir kasbning murakkabligi va xususiyatidan Kelib chiqqan holda Belgilanadi.

54. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ta'lim muassasasi ish o'rinlarini Kerakli jihozlar, o'lchov asbob-uskunolari, texnik hujjatlar hamda xom ashyo maTeriallari bilan ta'minlaydi.

55. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlar boshlanishidan oldin DAK a'zolaridan biri o'quvchilarni topshiriqlar mazmuni, texnik shartlar, baholash mezonlari, vaqt Me'yori va xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi.

Topshiriqlarni bajarish jarayonida oPerasiyalarning bajarilish Ketma-ketligini har bir o'quvchi o'zi mustaqil aniqlaydi.

56. DAKning kasblar bo'yicha amaliy imtihon xulosasi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada kasblar bo'yicha amaliy imtihonning natijalari umumlashtiriladi, kasbiy amaliy imtihon natijalari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasi (ta'rif razryadi)ni Berish to'g'risidagi qaror va imtihonni o'tkazish bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar qayd etiladi.

Bayonnoma DAK raisi, a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi.

57. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlarni o'tkazish uchun talab etiladigan xarajatlar ta'lim muassasasining tasdiqlangan xarajatlar sMetasida ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

58. Kasblar bo'yicha amaliy imtihonlarning xarajatlari ish beruvchi tashkilotlar, vasiy va homiylar yoki ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

59. Ta'lim muassasasining hisobxona bo'limi kasblar bo'yicha amaliy imtihonlarni o'tkazish uchun xom ashyoga talab etiladigan sarf-xarajatlarni o'quv ishlari va ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosarlari bilan birgalikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi.



## **V. Malakaviy ish himoyasini tashkil etish va o'tkazish**

60. Malakaviy ish himoyasi kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan topshiriladigan yakuniy attestatsiya sinovi hisoblanadi.

61. Malakaviy ish mavzulari o'quvchilarga III-kurs boshlanganidan so'ng uch oy davomida taqsimot qilinadi.

62. Malakaviy ish o'quvchilar tomonidan tayyorlagan turli buyum, qurilma (jihoz, maket va shu kabilar), jarayon va hodisalarning fizik, mexanik, kimyoviy xususiyat yoki xossalarini o'rganishga imkon beruvchi asbob-uskunalar va elektron asboblarning majmuasi ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

63. Malakaviy ishni tashkil etish va uning bajarilishini nazorat qilish kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari zimmasiga yuklatiladi.

64. Malakaviy ish monitoringi bo'lim (kafedra) mudirlari hamda malakaviy ish rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

65. Malakaviy ish mavzulari kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchilari hamda ish beruvchi tashkilotlar mutaxassislari bilan birgalikda tuzilib, bo'lim (kafedra) yig'ilishlarida ko'rib chiqiladi.

Malakaviy ish mavzulari ro'yxati va ularning o'quvchilar orasidagi taqsimoti kasb-hunar kollejining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Malakaviy ish mavzulari har o'quv yilida qayta ko'rib chiqiladi.

66. Malakaviy ishning tuzilmasi quyidagilardan tarkib topadi:

titul varag'i;

malakaviy ishning tavsifi;

mundarija;

kirish (mavzuning mohiyati, dolzarbligi, maqsadning qo'yilishi);

nazariy qism (asosiy tushuncha, dalil, tamoyil, kategoriya va ular orasidagi bog'lanishlar, ishlab chiqarish Texnologiyasining nazariy asoslari va shu kabilar);

texnologik qism (tarmoqning zamonaviy texnologik tamoyillari, belgilangan vazifani hal etish usullari);

jihozlash qismi (tarmoq Texnologiyasi bo'yicha jihozlar va uskunalar haqida ma'lumot, Texnikaviy va foydalanish tavsifnomalari);

iqtisodiy qism (texnik-iqtisodiy samaradorlik tahlili, Texnik samaradorlikni asoslash, ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish maqsadlari);

mehnat muhofazasi qismi (xavfsizlik texnikasi, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, sanoat sanitariyasi, mehnat gigiyenasi);

xulosa (malakaviy ish natijalarini umumlashtirish, qiyosiy baholash, muammoni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar);

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (rahbariy va ilmiy adabiyotlar, mavzuga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari ro'yxati hamda interNet ma'lumotlari);

ilova (fotosuratlar, ishchi va boshqa hujjatlar, yordamchi ma'lumotlar, jadvallar, chizmalar, grafiklar va slaydlar).

Mutaxassisliklar xususiyatidan kelib chiqib, malakaviy ish tuzilmasining qismlariga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

67. Malakaviy ish quyidagi ko'rinishlarda bajariladi:

a) tajribaviy-amaliy malakaviy ishi — mavjud texnologik jarayonni chuqurroq tahliliy o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, muayyan muammoni yechishga qaratilgan bo'ladi;

b) sinov-tadqiqot malakaviy ishi — mavjud Texnologik jarayonni takomillashtirish maqsadida kichik tadqiqot o'tkazishni o'z ichiga oladi. Unda sinov o'tkazish rejasi, sinov ishlari usullarining tavsifnomalari, sinovning asosiy bosqichlari, tajribaviy sinov ishi natijalarining tahlili va olingan natijalarni amaliy qo'llash imkoniyatlari haqida tavsiyalardan iborat bo'ladi;

v) loyiha malakaviy ishi — mazmungan yangi texnologik jarayon ishlanmasi yoki yangi mahsulotni yaratishdan iborat ijodiy faoliyat mahsuli.

68. Malakaviy ish loyiha ko'rinishida bajarilganda, u ko'pi bilan to'rt nafar o'quvchidan iborat guruh tomonidan amalga oshirilishi ham mumkin. Bunday hollarda har bir o'quvchiga individual topshiriqlar Beriladi.

69. Loyiha malakaviy ishi guruh tomonidan bajarilganda, har bir o'quvchining malakaviy ishini bajarishga qo'shgan hissasi aniq ko'rsatilishi shart.

70. Malakaviy ish mavzuining mazmuni ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligiga mos kelishi hamda tarmoqdagi yangi Texnologik jarayonlarni tashkil etishga qaratilgan bo'lishi Kerak.

71. Malakaviy ishini bajaruvchi o'quvchining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

mavzuga mos adabiyotlarni tanlash va ularni tahlil qilish;

malakaviy ishning bajarilish jadvaliga rioya qilish;

malakaviy ishini sifatli bajarish;

malakaviy ish bo'yicha taqdimot tayyorlash;

malakaviy ishini Belgilangan muddatda himoya qilish.

72. Malakaviy ish rahbarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

malakaviy ish mavzui bo'yicha individual topshiriqlarni ishlab chiqish;

malakaviy ishning mazmuni va bajarish ketma-ketligi bo'yicha maslahatlar Berish;

mavzuga mos adabiyotlar tanlash va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarga amaliy yordamlar ko'rsatish;

malakaviy ishning bajarilish taqvim rejasini ishlab chiqish va o'quvchi tomonidan uning mustaqil bajarilishini nazorat qilish;

malakaviy ishga yozma xulosa tayyorlash;

ish Beruvchi tashkilotlardan taqriz olinishini muvofiqlashtirish;

malakaviy ish himoyasida ishtirok etish.

73. Malakaviy ish rahbari o'quvchi bajargan malakaviy ishning mazmuni, sifati hamda olingan natijalar va mavjud ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mas'ul hisoblanadi.

74. Malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha kasb-hunar kollejining o'qituvchilari, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, ish beruvchi tashkilotlarning mutaxassislari maslahatchilar sifatida jalb etilishi mumkin.

75. Malakaviy ishini rasmiylashtirishga quyidagi talablar qo'yiladi:

malakaviy ishning matni 210 x 297 mm o'lchamdagi A-4 formatdagi yozuv qog'ozining bir tomoniga yozilgan, qo'l yozma shaklida 60 Betdan (madaniyat va sport hamda san'at yo'nalishlarida 25 betdan) va kompyuter yordamida 30 betdan (madaniyat va sport hamda san'at yo'nalishlarida 10 betdan) kam bo'lmagan hajmda tayyorlanadi. Kompyuterda Times New Roman nomli 12 o'lchamli shriftida, 1,5 yoki 2 intervalda yozilishi lozim. Har bir bet hoshiyasi yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 2 sm bo'lishi, xatboshi Besh-olti Belgiga teng va bir xilda bo'lishi lozim;

malakaviy ishning titul varag'idan tashqari barcha varaqlari raqamlanadi;

malakaviy ishning grafik, chizmalar qismi qo'lda yoki maxsus dasturlar yordamida kompyuterda A1 yoki A3 formatda bajariladi;

malakaviy ish uchun zarur bo'lgan formula yoki rasmlar qaysi manbadan olinganligi ko'rsatiladi;

tushuntiruv yozuvi bo'lim yoki kichik bo'limlarga bo'linadi. Har bir bo'lim alohida sahifadan boshlanadi va alohida tartib raqamga ega bo'ladi. Masalan: 1, 2, 3, .... ; har bir kichik bo'lim esa quyidagicha belgilanadi: 2.1, 3.2, 4.2, ... ; sarlavhalar simmetrik ravishda yoziladi. Sarlavha va matn orasidagi masofa 3-4 inTerval bo'lishi lozim;

foydalanilgan adabiyotlar to'g'risida muallifning ism-familiyasi, adabiyotning nomi, qayerda va qachon chop etilganligi, davriy nashrlardan foydalanilgan taqdirda, foydalanilgan gazeta (jurnal) nomi va sanasi yoziladi;

malakaviy ishda Keltirilgan rasm, jadval hamda chizma (sxema)larning barchasi Ketma-ket raqamlanadi.

76. Malakaviy ish to'liq bajarilgach, 1 nusxada muqovalanadi.

77. Ta'lim muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha diRektor o'rinbosari malakaviy ishga malakaviy ish rahbari taqrizidan tashqari xolis tomon taqrizini ham olinishini ta'minlaydi. Xolis

taqriz malakaviy ish mavzuiga aloqador tashkilotlarning mutaxassislaridan yoki mazkur ta'lim muassasasining umumkasbiy yoki maxsus fan o'qituvchisi tomonidan olinadi.

78. Taqriz asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

malakaviy ish mazmunining Berilgan mavzuga mosligi to'g'risida xulosa;

malakaviy ishdagi har bir bo'limning bajarilish mazmuni va sifatiga Berilgan baho;

qo'yilgan masalalarning yechilish darajasini, ishning nazariy va amaliy qiymatini baholash;

taqdim etilgan malakaviy ishning talab darajasida rasmiylashtirish darajasini baholash.

79. Taqrizning mazmuni bilan o'quvchi malakaviy ish himoyasidan kamida 3 kun avval tanishtirilishi Kerak.

80. Ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan malakaviy ish himoyasidan oldin DAKga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

tarmoq ta'lim standarti;

yakuniy atTestasiyani o'tkazishga oid qonun hujjatlari;

o'quvchilarni yakuniy atTestasiyaga ruxsat etilganligi to'g'risidagi ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i;

kasblar bo'yicha amaliy imtihon natijalari;

tashkilotlarning biridan ishlab chiqarish amaliyoti natijalari bo'yicha o'quvchiga berilgan kasbiy tayyorgarlik daraja (ta'rif razryadi)si;

o'quv Rejaga kiritilgan barcha fanlarni o'quvchining o'zlashtirganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

o'quvchining Reyting daftarchasi;

DAKning majlislar bayoni kitobi.

81. Malakaviy ish himoyasi o'quv rejasida Belgilangan yakuniy attestasiya uchun ajratilgan ikki hafta davomida kasblar bo'yicha amaliy imtihondan so'ng o'tkaziladi.

82. Malakaviy ish himoyasida har bir o'quvchiga o'zining ishini taqdimot qilishi uchun 15 — 20 daqiqa vaqt ajratiladi, taqdimot tugagandan so'ng malakaviy ishga Berilgan xulosa va taqrizlar o'qib eshittiriladi.

83. Malakaviy ish himoyasini baholash DAK tomonidan tasdiqlangan Mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Yakuniy bahoni belgilashda baholash varaqasida quyidagilar hisobga olinadi:

mavzuning dolzarbligi;

malakaviy ishning sifati va rasmiylashtirilishi;

o'quvchining loyiha bo'yicha taqdimoti;

o'quvchining Berilgan savollarga javobi;

o'quvchining nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarligi;

malakaviy ish rahbarining xulosasi;

taqrizchining bahosi.

84. Malakaviy ish himoyasining bahosi DAKning majlisida ochiq ovoz berish orqali ko'pchilik ovoz bilan hal etiladi. Bunda, o'quvchining kasblar bo'yicha amaliy imtihon va malakaviy ish himoyasidan olgan natijalari hisobga olinadi (ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, natija o'quvchining foydasiga hal etiladi).

85. DAKning yakuniy kengash qarorida o'quvchiga Berilgan kasbiy tayyorgarlik darajasi (ta'rif razryadi)ni tasdiqlash, Tegishli kasblarni egallagani hamda kasb-hunar kolLejini tamomlagani to'g'risida davlat namunasidagi diplomni berish bo'yicha xulosalar aks ettiriladi.

DAKning qarori o'quvchining ta'lim muassasasini tugatganligi yoki uni o'quvchilar safidan chiqarish to'g'risidagi buyrug'iga asos bo'ladi.

86. Yakuniy atTestasiya sinovlari bo'yicha tuzilgan hisobotlar va malakaviy ishlar, ta'lim muassasasi arxivida 4 yil davomida saqlanadi.

Belgilangan muddat tugagandan so'ng ta'lim muassasasi diRektorining buyrug'i bo'yicha tashkil etilgan komissiya majlisi qaroriga ko'ra malakaviy ishlar o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqariladi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

87. Yakuniy attestatsiya sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan o'quvchilarning arizasini ko'rib chiqish uchun ta'lim muassasasi direktori buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi. Mazkur buyruq bilan apellyatsiya komissiyasining tarkibi, ishlash tartibi va vakolatlari rasmiylashtiriladi hamda yakuniy attestatsiya boshlanishidan kamida ikki hafta oldin o'quvchilar e'tiboriga yetkaziladi.

88. Yakuniy attestatsiya sinovlari jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan o'quvchi faqat yakuniy attestatsiya baholari e'lon qilingan paytda apellyatsiya komissiyasiga yozma murojaat qilish huquqiga ega. Apellyatsiya komissiyasi shu kunning o'zida Bevosita joyida arizachining murojaatini hal etadi va tegishli qaror qabul qiladi. Boshqa kunlari o'quvchi tomonidan bildirilgan e'tiroz va shikoyatlar ko'rib chiqilmaydi.

89. Ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashiga DAK raisi tahliliy hisobot taqdim etadi.

90. Ushbu Nizom idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasidagi barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga tatbiq etiladi.

91. Mazkur Nizomda ko'zda tutilgan barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan xarajatlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tasdiqlangan xarajatlar smetasida ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag'lari doirasida hamda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

92. Mazkur Nizomda Belgilangan masalalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

93. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Davlat soliq qo'mitasi, «O'zbekiston Temir yo'llari» DAK bilan Kelishilgan.

**Sog'liqni saqlash vaziri A. IKRAMOV**

2009 yil 20 avgust

**Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri v.b. A. XAITOV**

2009 yil 19 avgust

**Madaniyat va sport ishlari vaziri A. JABBOROV**

2009 yil 25 avgust

**Qishloq va suv xo'jaligi vaziri S. ISMOILOV**

2009 yil 18 avgust

**O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi T. QO'ZIYEV**

2009 yil 27 avgust

**Davlat soliq qo'mitasi raisi B. PARPIYEV**

2009 yil 26 avgust

**«O'zbekiston Temir yo'llari» DAK boshqaruv raisi A. RAMATOV**

2009 yil 21 avgust

## **N A M U N A**

### **GUMANITAR VA IJTIMOIIY-IQTISODIY FANLAR BO'YICHA BITIRUVCHILARNING YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI TASHKIL ETISH BO'YICHA ME'YORIY HUJJATLAR TO'PLAMI**

Sartepo Turizm kolleji direktori v/b  
R.M.Fayziyevga o'quv ishlari bo'yicha  
direktor o'rinbosari v/b A.B.Ernazarov  
tomonidan

#### **BILDIRISHNOMA**

2007-2010 o'quv yillari davomida barcha fanlarni o'zlashtirgan, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini muvaffaqiyatli tugatgan quyidagi GT-207 guruh bitiruvchi-talabalarini Davlat imtihoniga kiritishga ruxsat Berishingizni so'rayman:

- |                                       |                                      |
|---------------------------------------|--------------------------------------|
| 1 Abduraimova Ruxshona Radjabovna     | 16 Niyazov Faxriddin Farxodovich     |
| 2 Abdurafikov Azimjon Abduraxmonovich | 17 Pardayeva Maftuna Xakimjonovna    |
| 3 Akramova Dildora Akmalovna          | 18 Radjabaliyeva Mayram Baxtiyorovna |
| 4 Aliyev Avaz Askarovich              | 19 Raximov Chingiz Akbarovich        |
| 5 Alimova Xabiba Feruzovna            | 20 Raximova Shahlo G'ayratovna       |
| 6 Aripov Orifjon Odilovich            | 21 Sultanov Behzod Toxirovich        |
| 7 Babayev Shoxrux Turdibayevich       | 22 Fattoyeva Dilshoda Sadriddinovna  |
| 8 Ibragimov Husan Qurbonovich         | 23 Fattoyeva E'tibor G'ayratjon qizi |
| 9 Israilova Farangiz Farxodovna       | 24 Xadjiyeva Xilola Mamazarifevna    |
| 10 Karimova Gulruxsor Raxmonovna      | 25 Xalimov Ramish Raimovich          |
| 11 Karimova Shahnoza Shuxratovna      | 26 Xusainova Dilrabo Mirdjafarovna   |
| 12 Kurbonova Zuxro Tuxtamurod qizi    | 27 Xusayniy MiraliSher Po'lat o'g'li |
| 13 Kamarov Faridun Farxodovich        | 28 ErgaShev Imomali Ergash o'g'li    |
| 14 Nazarova Shaxnoza Farxodovna       | 29 Yakubov Ibodullo Olim o'g'li      |
| 15 Negmatov Baxodir Muxamadaminovich  |                                      |

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari v/b

A.B.Ernazarov



## **B U Y R U Q**

«\_\_»\_\_\_\_\_ 200\_ YIL \_\_\_\_\_SONLI

SAMARQAND SHAHRI

«Davlat imtixoniga kiritish haqida»

2007-2010 o'quv yilida bitiruvchilarni Davlat attestatsiyasidan o'tkazish maqsadida

### **B U Y U R A M A N :**

2007-2010 o'quv yillari davomida barcha fanlarni o'zlashtirgan, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini muvaffaqiyatli tugatgan quyidagi talabalari Davlat imtihoniga kiritilsin:

«Turizm» yo'nalishi bo'yicha GT-107 guruhi

- |                                       |                                     |
|---------------------------------------|-------------------------------------|
| 1 Abdusakimova Farida Abdurosul qizi  | 13 Primov Hayotjon Hamidovich       |
| 2 Amonilloev Fazliddin Nematilloevich | 14 Sulaymonova Ijobat Niyat qizi    |
| 3 Vafoev Sanjar Abdusalomovich        | 15 Toxirova Aziza Ismoil qizi       |
| 4 Gulbahor Shukurillozoda             | 16 TuxtamiShev Anvar Abdikarimovich |
| 5 Jalilov Nodir Rayimovich            | 17 Umarova Shaxnoza Rashidovna      |
| 6 Isrofilov Damir Davronovich         | 18 Homitova Guljahon Axmadjonova    |
| 7 Karimova Rushana Furqatovna         | 19 XakBerdiyeva Dilshoda A'zamovna  |
| 8 Kozimov Sardor Bahodir o'g'li       | 20 ErgaSheva Ma'mura Akram qizi     |
| 9 Lukmanov Jaxongir Jamshidovich      | 21 Ergashev Odil Xolikulovich       |
| 10 Mamatkulov Faridun Furkatovich     | 22 YuldaShev Farxod Uktammovich     |
| 11 Mirzayeva Zarrina Sayfulloyevna    | 23 YuldaShev Erkin                  |
| 12 Narziyeva Shohida Komilovna        |                                     |

**ASOS:** O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari v/b A.B.Ernazarovning bildirishnomasi.

Kollej direktori v/b

R.M.Fayziyev

**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI**

**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**



**SAMARQAND VILOYATI XOKIMLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI  
BOSHQARMASI**

**SARTEPO TURIZM VA MAISHIY XIZMAT  
KASB-HUNAR KOLLEJI**

**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR  
TA'LIMI MARKAZI**

140161 Samarqand sh. Sartepa maskani  
telefon: (8 366) 221-23-49, 221-44-12, 221-43-62, E-manzil: sarturkol@rambler.ru

« \_ » \_\_\_\_\_ 2010 y. № \_\_\_\_\_

Viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi  
boshlig'i M.M.Xolmuxammedovga

**Hurmatli Murodillo Mahmudovich!**

Sartepo turizm va maishiy xizmat kasb-hunar kolleji ma'muriyati, Sizdan 2009-1010 o'quv yilida kollej bitirayotgan o'quvchilarni Yakuniy Davlat attestasiyasidan o'tkazish maqsadida quyidagi tarkibda komissiya tuzishga ruxsat berishingizni so'raydi:

**“Turizm”, “Servis” va “Sartaroshlik san’ati va dekorativ kosmetika” mutaxassisliklari bo’yicha**

1. Komissiya raisi – SamISI, «Xizmat ko'rsatish, servis va uni tashkil etish» kafedrası dosenti Fayziyev Djunaydillo Sadiyevich
2. Rais o'rinbosari – Kollej direktori v/b Fayziyev R.M.
3. A'zo – turizm fanlari o'qituvchisi Maxmudova U.M.
4. A'zo – servis fanlari o'qituvchisi Gafarova M.B.
5. A'zo – turfirma direktori Sattarova Z.I.
6. A'zo – SamDU dosenti, i.f.n. Karimov Z.K.
7. A'zo – Samarqand maishiy xizmat uyushmasi bosh buxgalteri Razzoqova S.

**“Informatika va axborot texnologiyalar” va “Fotografiya” mutaxassisliklari bo’yicha**

1. Komissiya raisi – TATU Samarqand filiali dosenti, f-m.f.n. Davronov Yusuf Davronovich
2. Rais o'rinbosari – Kurs rahbari Begaliyev T.B.
3. A'zo – “Informatika” kafedrası mudiri Saliyeva A.X.
4. A'zo – Fanlar akademiyasi Samarqand bo'limi aspiranti Sulaymonov F.O'.
5. A'zo – “Javohir” poligraf xususiy firma direktori Islomov U.E.

**“Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi bo’yicha**

1. Komissiya raisi – SamKXI “Buxgalteriya va audit” kafedrası katta o'qituvchisi Axmedov Sh.I.
2. Rais o'rinbosari – KTBD O' Raxmatova X.R.
3. A'zo – “Iqtisodiy fanlar” kafedrası mudiri Muxammadiyeva Sh.E.
4. A'zo – SamISI assistenti Poshshxo'jayeva D.J.
5. A'zo – DAT “Asaka Bank”i Afrosiyob filiali ichki audit bo'yicha yetakchi mutaxassisi Bekmurodov Farxod Amrulloevich

**“Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” bo’yicha**

1. Komissiya raisi – SamDU Tarix-falsafa fakulteti katta o'qituvchisi S.I.Sharipov
2. Rais o'rinbosari – MMIBDO' Ikromov B.X.
3. A'zo – Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri Xasanova S.M.
4. A'zo – tarix fani o'qituvchisi Yunusov M.A.
5. A'zo – tarix fani o'qituvchisi Xalilov M.X.

**Hurmat bilan,**

**Kollej direktori v/b**

**R.M.Fayziyev**

«TASDIQLAYMAN»  
Kollej direktori v/b  
\_\_\_\_\_ R.M.Fayziyev

Bitiruvchi guruhlarda Yakuniy Davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik bo'yicha maslahatlar (konsultasiyalar) o'tkazish

## JADVALI

(31 maydan – 14 iyungacha)

| №  | Fan nomi                                                      | O'qish tili | O'tkazish joyi | Hafta kunlari                       | Vahti                   | O'qituvchi                              | Eslatma |
|----|---------------------------------------------------------------|-------------|----------------|-------------------------------------|-------------------------|-----------------------------------------|---------|
| 1. | Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar                        | O'zbek tili | 203 aud.       | Seshanba<br>Chorshanba<br>Payshanba | 13-00<br>13-00<br>13-00 | Yunusov M.A.                            |         |
| 2. | Amaliy kasbiy imtihon<br>(Turistik xizmatlarni tashkil etish) | O'zbek tili | 106 aud.       | Payshanba<br>Juma                   | 10-00<br>10-00          | Karimov Z.K.                            |         |
| 3. | Amaliy kasbiy imtihon<br>(Buxgalteriya ishi)                  | O'zbek tili | 201 aud.       | Dushanba<br>Seshanba<br>Juma        | 13-00<br>13-00<br>13-00 | Muxammadiyeva<br>Sh.E.<br>Eshokulova D. |         |
